

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA NOMODDIY AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Rozmatova Umida Yuldashevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O'zbekiston. Email: umidayuldashevna@gmail.com
ORCID: 0009-0004-8649-0641

IMPROVING THE ACCOUNTING OF INTANGIBLE ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS

Rozmatova Umida Yuldashevna

Independent researcher at Tashkent State University of Economics
Tashkent, Uzbekistan. Email: umidayuldashevna@gmail.com
ORCID: 0009-0004-8649-0641

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarining moliyaviy hisobotlarida, jumladan moliyaviy holat to'g'risidagi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarda nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarni yoritib berish tartibi bayoni keltirib o'tilgan. Shuningdek, moliyaviy hisobotlarda nomoddiy aktivlar bo'yicha ma'lumotlarni aks ettirish yuzasidan taklif va tavsiyalar shakllantirilgan. Mazkur takliflar asosida korxonalarda moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: moliyaviy natijalar, buxgalteriya balansi, nomoddiy aktivlar, aktivlarni qadrsizlanishi, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

Abstract: This article presents the procedure for disclosing information about intangible assets in the financial statements of enterprises, including the statement of financial position and the statement of financial performance. It also provides proposals and recommendations on the presentation of information regarding intangible assets in financial statements. Based on these proposals,

enterprises are enabled to harmonize their financial reporting forms with international standards.

Keywords. financial performance, balance sheet, intangible assets, asset impairment, national accounting standards, international financial reporting standards (IFRS).

Kirish. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida moliyaviy hisobotlarni tuzishga o'ziga xos yondoshuv, ya'ni umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobot ta'rifi qo'llaniladi. Unga ko'ra: "Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobot ("moliyaviy hisobot" deb ataladi) –bu tashkilotdan o'zlarining muayyan axborot ehtiyojlariga javob beradigan hisobot tayyorlashini talab etish imkoniyatiga ega bo'lmagan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan moliyaviy hisobotdir"¹. Hisobot beruvchi korxonaning umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotidan asosiy foydalanuvchilari tomonidan qabul qilinadigan qarorlariga ta'sir qilishini asoslangan tarzda taxmin qilish mumkin yoki yo'qligini baholash korxonadan ushbu foydalanuvchilarning xususiyatlari bilan

¹ "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" 1-son BHMS (MHXS). Mazkur standart 2005-yildagi o'zgarishlari

bilan 2003-yilda qayta ko'rib chiqilgan 1-son BHXS «Moliyaviy hisobotni taqdim etish» o'rni egallaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchi investorlar, qarz beruvchilar va boshqa kreditorlar hisobot beruvchi korxonalaridan to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot berishini talab qila olmaydilar va o'zlariga kerakli moliyaviy ma'lumotlarning ko'p qismida umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlardan olishga majbur bo'ladi. Natijada, ular umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotning asosiy foydalanuvchilari hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy hisoboti asosan iqtisodiy faoliyat bo'yicha yetarli ma'lumotga ega bo'lgan va ma'lumotlarni tahlil qiladigan foydalanuvchilar uchun tayyorlanadi. Xalqaro va milliy hisobotlarda nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarni ochib berish tartibi mavjud bo'lsada, potensial investor yoki boshqa moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning talablariga qarab o'zarishlarni kiritib borishni talab etadi. Demak, moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining tartibga solingan ifodasi bo'lib, uning maqsadi turli foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali bo'ladigan korxonaning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat.

Material va metod. Maqolani yozishda nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarni moliyaviy hisobotlarda yoritib berishga aratilgan tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, induksiya, deduksiya, qiyosiy taqqoslash, nazariy va amaliy o'rganish, statistik tahlil, omilli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natijalar.

MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni taqdim etuvchi korxonalarining moliyaviy hisoboti quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:
aktivlar;
majburiyatlar;
xususiy kapital;
daromad va xarajatlar, shu jumladan foyda

va zararlar;
mulkdorlar tomonidan ularning mulkdor sifatida amal qilishidagi qo'yilmalar va ularga mulkdor sifatida amal qilishidagi taqsimlanadigan summalar;
pul mablag'lari harakati.
Natijada mazkur ma'lumotlar izohlardagi boshqa ma'lumotlar bilan birgalikda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga korxonaning kelgusi pul oqimlarini, xususan, ularning yuzaga kelish vaqti va aniqligini prognoz qilish imkonini beradi.

Nomoddiy aktivlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish va ular haqidagi ma'lumotlarni yoritib berish masalasi har doim ham dolzarb bo'lib qolaveradi, chunki, nomoddiy aktivlarning o'zi buxgalteriya hisobining yangi obyekti sifatida tez o'zgaruvchan va qo'shimchalarni talab etuvchi aktivdir. Nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarni bir hil tendensiyaga ega deb ayta olmaymiz. Bugun bir korxonaning balansida aks etgan ma'lumot muayyan vaqtdan keyin o'z qadrini yo'qotishi mumkin, ya'ni ma'lumotlarni ishonchli olish imkoniyati bo'lmaydi. Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlar moliyaviy hisobotning barcha shakllarida aks ettiriladi. Ushbu ma'lumotlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lib, bu esa moliyaviy hisobot shakllarini o'zaro uzviylikini ta'minlaydi.

Korxonalarda nomoddiy aktivni hisobga olish tartibi uning foydali xizmat muddatiga bog'liq bo'lib, foydali xizmat muddati aniq bo'lgan nomoddiy aktiv hisoblanadi, agar korxonada foydali xizmat muddati noaniq bo'lgan nomoddiy aktivlar bo'lsa, ular aniq qilinmaydi. Bu yerda "Noaniq" atamasi "Cheksiz" degan ma'noni anglatmaydi. Nomoddiy aktivning foydali xizmat muddati o'zida, uni hisoblash paytida aktivning baholangan ishchi holatida saqlanishi uchun talab qilinadigan, kelgusida aktivni saqlab turish va unga xizmat ko'rsatish sarflari darajasini va bunday sarflarni

ta'minlashga korxonaning qobiliyati va tayyorligini namoyon qiladi. Shuningdek, nomoddiy aktivning foydali xizmat muddatining noaniqligi haqidagi xulosa aktivni ishchi holatda saqlash uchun talab etiladigan sarflardan ortiq rejalashtirilgan kelgusi sarflarga bog'liq bo'lmasligi nazarda tutiladi.

Nomoddiy aktivning foydali xizmat muddatiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi.

1. rasm. Nomoddiy aktivning foydali xizmat muddatini aniqlashdagi omillar.

O'z navbatida korxonada mavjud nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddatiga ham iqtisodiy ham huquqiy omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin, ya'ni:

iqtisodiy omillar - korxonadan kelgusi iqtisodiy naf olinadigan davrni aniqlashtiradi;

huquqiy omillar - korxonadan ushbu naflarni nazorat qilishi mumkin bo'lgan davrni cheklashi mumkin. Foydali xizmat muddati ushbu omillar natijasida aniqlanadigan davrlarning qisqarog'i bilan belgilanadi.

O'z navbatida korxonada mavjud nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddatiga ham iqtisodiy ham huquqiy omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin, ya'ni:

iqtisodiy omillar - korxonadan kelgusi iqtisodiy naf olinadigan davrni aniqlashtiradi;

huquqiy omillar - korxonadan ushbu naflarni nazorat qilishi mumkin bo'lgan davrni cheklashi mumkin. Foydali xizmat muddati ushbu omillar natijasida aniqlanadigan davrlarning qisqarog'i bilan belgilanadi.

Amaldagi 7-son "Nomoddiy aktivlar" BHMSda nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati tashkilot tomonidan nomoddiy aktiv buxgalteriya hisobiga qabul qilinish chog'ida belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. Natijada nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddatini belgilash quyidagilardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi:

- a) patent, guvohnomaning amal qilish muddati va O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq nomoddiy aktivlardan foydalanish muddati bo'yicha boshqa cheklovlar;
- b) tashkilot iqtisodiy naf (daromad) olishi

mumkin bo'lgan davrda ushbu obyektidan foydalanish ko'zda tutilayotgan muddat.


Nomoddiy aktivlarning alohida guruhlari uchun foydali xizmat muddati ushbu nomoddiy aktivdan foydalanish natijasida olinishi kutilayotgan mahsulotlar miqdori yoki ishlar hajmining boshqa natura ko'rinishidagi ko'rsatkichidan kelib chiqqan holda aniqlab boriladi. BHMSda foydali xizmat muddatini belgilash mumkin bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha ajratmalari me'yori besh yil hisobida belgilanishi nazarda tutilgan. Fikrimizcha, xizmat muddati noaniq bo'lgan nomoddiy aktivlarning yillik me'yori 20 foizga teng bo'ladi (agar besh yil belgilansa). Ushbu nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati, agarda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida boshqa tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, nomoddiy aktiv foydalanishga tayyor bo'lgan paytdan boshlab tashkilotning faoliyat ko'rsatish muddatidan oshmasligi lozim bo'ladi. Ya'ni korxonada o'zi belgilaydi. Masalan, litsenziyaning foydali xizmat muddati 4 yil deb baholangan bo'lsada, korxonada so'nggi 3 yilda o'z faoliyatini yakunlashni ma'lum qiladi. Demak, litsenziyaning foydali xizmat muddati 3 yil deb olinadi.

Taklif etilmoqda: 7-son "Nomoddiy aktivlar" BHMSning 47-bandida "Foydali xizmat muddatini belgilash mumkin bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha ajratmalari me'yori besh yil hisobida belgilanadi." deb ifodalangan. Bizning fikrimizcha foydali xizmat muddati aniq bo'lmagan nomoddiy aktivlarning xizmat muddatini har yili qayta ko'rib chiqilishi kerak. Shu maqsadda biz ushbu jumlaning quyidagicha tahrir qilindi va qo'shimchalar kiritildi:

"Foydali xizmat muddatini belgilash mumkin bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha ajratmalari har yili qayta ko'rib chiqish bilan belgilanadi.

Noaniq foydali xizmat muddatiga ega nomoddiy aktivlar hisoblanmaydi.

1- rasm



Nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati - tashkilotning nomoddiy aktivlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, moddiy shaklga ega bo'lmagan, lekin foydalanish jarayonida moddiy manfaatlar yaratishga qodir bo'lgan aktivning foydali xizmat muddatini aniqlashda o'ziga xos muammolarga duch kelinadi. Masalan, nomoddiy aktivning foydali xizmat muddati uning faoliyati davomida o'zgarishi mumkinmi, bu esa buxgalterni qiziqtirishi tabiiy. Bizning fikrimizcha, nomoddiy aktivlardan foydalanish davrida uning foydali xizmat muddati o'zgaradi. Korxonalar har yili nomoddiy aktivlar bo'yicha buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini tekshirishi va agar kerak bo'lsa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarish va farqlanishlarni aks ettirish uchun muddatni o'zgartirishga majbur bo'ladi. Shuningdek, aniq muddatga ega bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha buxgalteriya ma'lumotlari tekshirib turiladi. Amaliyotda soliq hisobini yuritishda nomoddiy aktivdan foydalanish shartlarini qayta ko'rib chiqish mumkinmi. Afsuski, yo'q deb javob bergan bo'lar edik, sababi, shartlar belgilangan va ularni qayta ko'rib chiqish mumkin bo'lmaydi.

Nomoddiy aktivlar foydali xizmat muddatini aniqlash yuzasidan yuqorida bildirib

o'tilgan fikr-mulohazalar va taklif hamda tavsiyalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, nomoddiy aktivlardan foydalanishda ularning xizmat muddatlari bo'yicha aniqliklarni kiritish, ulardan foydalanishdagi turli nomuvofiq holatlar va muammolarni bartaraf etish imkoniyatini beradi;

ikkinchidan, nomoddiy aktivlarga doir milliy standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni qo'llashda xalqaro standartlarga muvofiqligi ta'minlanadi;

uchinchidan, foydali xizmat muddati noaniq bo'lgan nomoddiy aktivlarni qayta ko'rib chiqish, qadrsizlanish holatlarini aniqlash, ularni baholash, moliyaviy natijalarda aks ettirish hamda hisob siyosatida belgilash imkoniyatiga ega bo'linadi;

to'rtinchidan, nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddatini korxonalar tomonidan o'zi mustaqil belgilanishi natijasida, u bilan bog'liq bo'lgan soliq masalalarida ham belgilangan qoidalar va me'yorlarga amal qilishini talab etadi.

Moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining tartibga solingan ifodasi bo'lib, uning maqsadi turli foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali bo'ladigan korxonaning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat.

Nomoddiy aktivlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish va ular haqidagi ma'lumotlarni yoritib berish masalasi har doim ham dolzarb bo'lib qolaveradi, chunki, nomoddiy aktivlarning o'zi buxgalteriya hisobining yangi obyekti sifatida tez o'zgaruvchan va qo'shimchalarni talab etuvchi aktivdir. Nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarni bir hil tendensiyaga ega deb ayta olmaymiz. Bugun bir korxonaning balansida aks etgan ma'lumot muayyan vaqtdan keyin o'z qadrini yo'qotishi mumkin, ya'ni ma'lumotlarni ishonchli olish imkoniyati bo'lmaydi.

Nomoddiy aktivlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bo'yicha olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N.Rizayev tomonidan intellektual mulk obyektlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish va ular haqida ishonchli ma'lumotlarni ochib berish masalalari tadqiq etilgan.

Ushbu tadqiqotlarda intellektual mulk ob'ektlari haqidagi ma'lumotlarni "Buxgalteriya balansi"ning 020-021-022- satrlarida "Nomoddiy aktivlar" tarkibida ifodalanishi va bu umumlashgan ma'lumot bo'lib, intellektual mulk ob'ektlar haqidagi ma'lumotlarni olish yoki ularni tahlil qilish imkoniyatini bera olmasligini alohida ta'kidlab o'tadi, shuningdek, "Buxgalteriya balansi" (1- shakl)ga intellektual mulk ob'ektlar haqida to'liq axborotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi registr "Amortizatsiyalanuvchi aktivlar" nomli ilova hisobot shaklini kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi.

S.Qodirov esa, ushbu fikrlarni qo'llab quvvatlab, xorijiy tajribalarini (Germaniya,

Rossiya, Italiya kabi davlatlarning moliyaviy hisobot shakllarini) o'rgangan holda, amaldagi "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot" (Buxgalteriya balansi, 1-shakl)ga taklifiga ko'ra, aktivlar foydali xizmat muddatining eng uzoq davriga ega bo'lishi emas, balki ularning daromadlilik nuqtayi nazardan shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Bu esa investor uchun ham birinchi navbatda daromad keltirishi yuqori bo'lgan aktivlar haqidagi ma'lumotlar ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi". Ushbu fikr-mulohazalardan xulosa qilish mumkinki. Nomoddiy aktivlarni moliyaviy hisobotlarda aks etirib borilishini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Shu maqsadda, biz tomonimizdan xalqaro standartlarda ko'rsatib o'tilgan aktivlar qadrsizlanishi bo'yicha ma'lumotlarni aks ettirish bo'yicha takliflar berildi.

Taklif etilmoqda: "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" shakliga "Aktivlarni qadrsizlanishidan zararlar" nomli moddani kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu ma'lumotlar biz tomonimizdan taklif qilingan 0540 - "Nomoddiy aktivlarga kapital qo'yilmalar va foydalanish huquqidagi aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha rezerv" (kontraktiv) schyoti asosida olinadi (mazkur taklif 3.2 paragrafda berilgan).

Bu yerda *Qadrsizlanishdan zarar* - bu aktiv yoki pul mablag'larini hosil qiluvchi birlik balans qiymatining uning qoplanadigan qiymatidan ortgan summasidir. Agar nomoddiy aktivning balans qiymati uning qoplanadigan qiymatidan ortiq bo'lsa, aktiv qadrsizlangan hisoblanadi. Korxonalar har bir hisobot davri yakuniga aktivlar qadrsizlanganligining biror alomati mavjudligi yoki mavjud emasligini baholaydi. Agar shunday alomat mavjud bo'lsa, korxonalar nomoddiy aktivning qoplanadigan qiymatini baholashi lozim.

Nomoddiy aktivning o'z balans qiymatini qoplash uchun yetarli kelgusi iqtisodiy naf



keltirish qobiliyati, odatda bunday aktivning foydalanishga tayyor holatidan ko'ra foydalanish uchun tayyor bo'lmagan holatida noaniqlikka ko'proq moyil

bo'ladi. Shu sababli, foydalanishga tayyor bo'lmagan nomoddiy aktivning balans qiymatini yiliga kamida bir marta qadrsizlanish testidan o'tkazishni talab etadi.

MOLIYAVIY NATIJALAR TO'G'RISIDAGI HISOBOT
20__yil uchun

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		Daromad lar (foyda)	Xarajat lar (zararlar)	Daromad lar (foyda)	Xarajat lar (zararlar)
1	2	3	4	5	6
Davr xarajatlari, jami (satr.050+060+070+080), shu jumladan:	040	x	1000000	x	1500000
Sotish xarajatlari	050	x	400000	x	450000
Ma'muriy xarajatlar	060	x	500000	x	600000
Boshqa operatsion xarajatlar	070	x	80000	x	200000
Aktivlarning qadrsizlanishidan zararlar	080	x	30000	x	250000
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090	200000	x	400000	x
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (satr. 030-040+090)	100	3500000		4200000	

Taklif etilyotgan ushbu "Aktivlarni qadrsizlanishidan zararlar" schyotida korxonaning nafaqat nomoddiy aktivlari, balki asosiy vositalarni qadrsizlanishidan zararlar ham hisobga olinadi. Natijada, ushbu modda korxonaning operatsion faoliyatdan ko'rilgan zararlarni aniqlashda hisob-kitob qilinadi.

"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMSda ushbu aktivlar haqidagi ma'lumotlarni moliyaviy hisobotlarda yoritib berish bo'yicha alohida tartib qoidalari keltirib o'tilgan. Jumladan, nomoddiy aktivlar va ularning alohida guruhlariga nisbatan qabul

qilingan hisob siyosati bo'yicha quyidagilar moliyaviy hisobotlarga izoxlarda yoritib berilishi kerak:
birinchi, korxonadan tomonidan nomoddiy aktivlarning (alohida guruhlari bo'yicha) foydali xizmat muddatlari;

haqida to'xtalib o'tgan edik, unda aniq foydali xizmat muddatiga ega va ega bo'lmagan aktivlar sifatida tasniflangan edi. Amaldagi qonunchilikka asosan aniq foydali xizmat muddatiga ega bo'lmagan nomoddiy aktivlarni besh yil davomida hisobdan chiqarilishi ko'zda tutilgan demak korxonada o'zining hisob siyosatida ushbu tartib haqida to'liq ifodalashi hamda moliyaviy hisobotda yoritib berishi lozim bo'ladi.

Ikkinchi, nomoddiy aktivlarning alohida guruhlari bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari;

Korxonada moliyaviy hisobotda nomoddiy aktivlarga amortizatsiyaning qaysi usulini qo'llagan bo'lsa shuni yoritib berishi talab etiladi. Masalan, korxonada dasturiy ta'minot uchun ishlab chiqarish usuli tanlangan bo'lsa, ushbu usul hisobot davri davomida o'zgartirilmaligi va agar o'zgarish kiritish kerak bo'lib qolsa, uning sabablarini aniq ko'ratishi kerak bo'ladi.

Uchinchi, tashkilotda mavjud bo'lgan barcha nomoddiy aktivlarning hisobot davri boshi va oxiridagi umumiy balans qiymati va jam'atilgan amortizatsiya summasi;

Nomoddiy aktiv tan olinib, kirim qilingandan keyin korxonada balansida hisobot davri boshi va oxiri bo'yicha boshlang'ich qiymati, amortizatsiya qiymati va qoldiq qiymatlarida aks ettirish lozim bo'ladi. Bu esa nomoddiy aktivlarning holati va ularni o'zgarishini tahlil qilish va shu asosida ishonchli axborotlarni taqdim etishni ta'minlaydi.

To'rtinchi, kelib tushishi, chiqib ketishi va boshqa harakatlari natijasida hisobot davri boshi va oxirida nomoddiy aktivlarning balans qiymatidagi o'zgarishlar;

albatta o'zgarishi mumkin. Buning sabablari aniq ko'rsatilgan holda izohlanishi talab etiladi.

Beshinchi, tashkilotning o'zi tomonidan yaratilgan nomoddiy aktivlarning balans qiymati.

Nomoddiy aktivlar korxonada balansiga xarid qilib olishdan tashqari o'zi tomonidan yaratilishi asosida kiringa olinishi mumkin. Masalan, xodim tomonidan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish yoki foydali modellar, sanoat namunalari yaratish kabi holatlar uchraydi. Bunday holatda yaratilgan nomoddiy aktivlar xarajatlardan kelib chiqib, haqiqiy tannarxi bo'yicha kirim qilinadi, aynan shu ma'lumotlar hisobotda yoritib beriladi.

Shuningdek, BHMSga ko'ra, korxonaning moliyaviy hisobotlari izoxlarida quyidagilar ham yoritib berilishi qayd etilgan:

balans qiymati korxonaning moliyaviy hisobot uchun muhim hisoblangan nomoddiy aktivlarning tavsifi, balans qiymati va qolgan amortizatsiya davri;

egallik qilish huquqida cheklovlar mavjud bo'lgan nomoddiy aktivlarning umumiy balans qiymati, shuningdek majburiyatlar bo'yicha kafolat sifatida berilgan nomoddiy aktivlarning umumiy qiymati;

amortizatsiya hisoblanmaydigan nomoddiy aktivlarning tavsifi va balans qiymati hamda amortizatsiya hisoblanmasligi sabablari.

Korxonada tomonidan o'zining oshkor qilinayotgan moliyaviy hisobotlarga izoxlarda quyidagilarni qisqacha yoritib berishi kerak:

- moliyaviy hisobot tuzilishi sanasiga nomoddiy aktiv deb tan olinish mezonlariga

javob beradigan, biroq avvalgi hisobot davrida xarajat sifatida tan olingan ahamiyatli nomoddiy aktivlar;

- kelgusida iqtisodiy naf olinishi kutilayotgan nomoddiy aktivlarni yaratish yoki yaxshilashga yo'naltirilgan faoliyat turlari;

Xalqaro standartlarda ham nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarni yoritib berish bo'yicha BHMSdagi qoidalarga o'xshash tartibi mavjud.

Masalan, 38-son BHXS bo'yicha tashkilot o'zida yaratilgan nomoddiy aktivlar bilan boshqa nomoddiy aktivlarni farqlagan holda nomoddiy aktivlarning har bir sinfi uchun quyidagilarni yoritib berishi lozim:

a) tegishli aktivning foydali xizmat muddatlari noaniq yoki aniqligi, agar aniq bo'lsa, foydali xizmat muddatlari yoki qo'llanadigan amortizatsiya normalari;

b) aniq foydali xizmat muddatiga ega nomoddiy aktivlar uchun qo'llanadigan amortizatsiya usullari;

v) davr boshi va davr oxiridagi yalpi balans qiymati va jamg'arilgan amortizatsiya (qadrsizlanishdan jamg'arilgan zararlar bilan umumlashgan holda);

g) nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasini o'z ichiga oladigan umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot moddasi(moddalari);

d) quyidagilarni aks ettiruvchi hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan balans qiymati solishtirmasi.

Xulosa qilib ta'kidlanganda nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarni korxonalar moliyaviy hisobotlarida yoritib berish tartibi aniq, ishonchli va tushunarli bo'lishini talab etadi. Bu esa, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarni ularga bo'lgan ishonchini oshiradi va provardida investitsiyalar oqimini oshishiga olib keladi.

XULOSA.

Bu tartib fikrimizcha:

Birinchiidan, MHXS'lari talablari asosida shakllantirilayotgan "Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risida"gi hisobotga uslubiy jihatdan uyg'unligini ta'minlaydi;

Ikkinchiidan, kelgusida mazkur moliyaviy hisobot to'g'risidagi hisobot tarkibiga "Asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar)" o'rniga xalqaro talablar asosidagi "Operatsion faoliyat foydasi (zarar)" nomli bo'limni kiritish va unda yuqoridagi "Aktivlarni qadrsizlanishidan zararlar" schyotidagi ma'lumotlarni umumlashtirish lozim bo'ladi.

Uchinchiidan, nomoddiy aktivlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, ular haqidagi ma'lumotlarning to'liqligini ta'minlash, moliyaviy ma'lumotlarning haqqoniyligi va ishonchliligiga olib keladi. Natijada moliyaviy hisobotdan foydalanuvchi manfaatdorlarni axborotlarga bo'lgan talablarini qondirish imkonini beradi.

Demak, BHMS asosida moliyaviy hisobotlarni taqdim etuvchi korxonalarda mavjud nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarni ham oshkor etilishi, moliyaviy hisobotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlashga hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qarori. 2020-yil 24-fevral. <https://lex.uz/docs/4746047>
2. "Nomoddiy aktivlar" 7-son Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS-7). O'zRes AV 2024-yil 9-avgust 3547-son. 13-band.
3. 38-son BHHS "Nomoddiy aktivlar". Rasmiy tarjima-2022-y.
4. Tashnazarov S. Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1 [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP- SEL" MCHJ nashriyoti, 2023 - 580 bet.
5. Ochilov I.K., Rizayev N.K, Kalonov M. Buxgalteriya hisobi. Darslik. (nomutaxasis uchun) Toshkent. "IQTISOD-MOLIYA". 2022-yil 272 b.
6. Ismanov I.I. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. 2009. 37 b.
7. Rizayev N.K. Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy daraja olish uchun yozilgan diss. T-2004-yil.
8. Rizayev N.K. Intellektual mulk obyektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. I.f.d. (DSc) darajasini olish uchun yozilgan diss. T-2019-y.
9. Xudoykulov A. Nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish, iqt. fan bo'yicha falsafa doktor (PhD) diss. avto. 2023. 35 b.
10. Qodirov S. Nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyotini takomillashtirish, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss avt, 2024-y.
11. Entoni R., Ris Dj. Uchet: situatsiya i primery. Per. s ang./Pod red. i s predisl. A.M.Petrachkova.–M.:Finansy i statistika, 1993.–20-21 s.
12. Suvorov A.V. Metodologicheskiye podxody k otsenke MSFO. Mejdunarodnyy buxgalterskiy uch. 2007. S. 31-38.
13. Trushkina, A. V. Buxgalterskaya (finansovaya) otchetnost kak informatsionnaya baza finansovogo analiza / A. V. Trushkina. Tekst : neposredstvennyy // Molodoy uchenyy. 2016. № 13 (117). S. 527-529. URL: <https://moluch.ru/archive/117/32467/> (data obraçeniya: 02.02.2024).
14. Umarova M., Axmadjonov K. "Buxgalteriya hisobi". T.: "O'ZAJBNT" - 2004.-B. 327.
15. Hoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. -T.: "Yangi asr avlodi", -2004.-B. 242.